


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 651,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 647,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 135,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4 003,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 273,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,2 %) tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri, Beruniy, Qonliko'l va Shumanoy tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 31,6 %), Beruniy (9,4 %), Xo'jayli (9,3 %), To'rko'l (8,9 %) va Qo'ng'irot (7,1 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35,0 % ga o'sdi va 647,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,9 % iga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 4 003,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 6,1 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,1 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018-yil  
yanvar-noyabr




2019-yil  
yanvar-noyabr



Yirik korxonalar  
 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, (%)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik  
 Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,8 %), Qorao'zak (99,5 %), Kegayli (99,3 %), Nukus (99,3 %) va Shumanoy (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (33,3 %), Taxiatush (20,9 %) va To'rtko'l (11,6 %) tumanlarida kuzatilgan.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

|  | Yirik korxonalar<br>(mln. so'm) | O'tgan yilning shu<br>davriga nisbatan,<br>% da | Kichik biznes va<br>xususiy tadbirkorlik<br>(mln. so'm) | O'tgan yilning shu<br>davriga nisbatan,<br>% da |
|--|---------------------------------|---|---|---|
| <b>Qoraqalpog'iston<br/>Respublikasi</b> | <b>647 877,0</b>                | <b>135,0</b>                                    | <b>4 003 266,2</b>                                      | <b>106,1</b>                                    |
| <i>tumanlar:</i>                         |                                 |   |   |   |
| Amudaryo                                 | 19 441,9                        | 85,3  | 294 669,6   | 109,6   |
| Beruniy                                  | 11 634,9                        | 89,4  | 424 521,4   | 109,7   |
| Qonliko'l                                | 288,3                           | 140,8   | 117 586,1   | 108,7   |
| Qorao'zak                                | 710,5                           | 79,2  | 149 766,0   | 106,9   |
| Kegayli                                  | 640,8                           | 92,3  | 96 229,7  | 106,5   |
| Qo'ng'iroq                               | 15 212,9                        | 151,1   | 316 673,6   | 106,3   |
| Mo'ynoq                                  | 685,8                           | 95,5  | 31 446,1  | 106,7   |
| Nukus                                    | 600,6                           | 77,9  | 84 747,8  | 108,4   |
| Taxiatush                                | 23 378,4                        | 93,0  | 88 725,2  | 112,7   |
| Taxtako'pir                              | 1 582,4                         | 170,4   | 115 095,0   | 106,3   |

|            |           |       |           |       |
|------------|-----------|-------|-----------|-------|
| To'rtko'l  | 48 239,6  | 83,3  | 367 650,1 | 112,9 |
| Xo'jayli   | 11 240,3  | 125,8 | 420 504,7 | 107,6 |
| Chimboy    | 18 238,1  | 108,3 | 167 624,8 | 107,2 |
| Shumanoy   | 869,3     | 120,3 | 96 732,3  | 108,5 |
| Ellikqal'a | 5 543,6   | 150,2 | 252 529,4 | 106,1 |
| Nukus sh.  | 489 569,6 | 154,7 | 978 764,4 | 99,2  |

2019-yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 2 474,3 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (4 636,4 ming so'm), Xo'jayli (3 547,6 ming so'm) va Taxtako'pir (2 916,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mo'ynoq (1 020,1 ming so'm), Kegayli (1 081,1 ming so'm) va Taxiatosh (1 531,5 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

|                                      | Ming so'm      | O'tgan yilning mos davriga nisbatan,<br>% da |
|--------------------------------------|----------------|--|
| <b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b> | <b>2 474,3</b> | <b>107,7</b>                                 |
| <i>tumanlar:</i>                     |                |  |
| Amudaryo                             | 1 597,7        | 105,6  |
| Beruniy                              | 2 308,9        | 106,9  |
| Qonliko'l                            | 2 334,1        | 107,4  |
| Qorao'zak                            | 2 866,2        | 105,9  |
| Kegayli                              | 1 081,1        | 105,8  |
| Qo'ng'iroq                           | 2 574,8        | 106,5  |
| Mo'ynoq                              | 1 020,1        | 104,7  |
| Nukus                                | 1 724,2        | 106,0  |
| Taxiatosh                            | 1 531,5        | 106,5  |
| Taxtako'pir                          | 2 916,9        | 106,3  |
| To'rtko'l                            | 1 964,5        | 106,4  |
| Xo'jayli                             | 3 547,6        | 106,7  |
| Chimboy                              | 1 609,2        | 106,3  |
| Shumanoy                             | 1 749,1        | 107,6  |
| Ellikqal'a                           | 1 641,7        | 104,6  |
| Nukus shahri                         | 4 636,4        | 111,1  |

Jumladan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,2 % ni tashkil etib, 147,0 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,7 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 536,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 14,0 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra 892,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 58,1 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo'yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qorao'zak, Qo'ng'irot, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus va Ellikqal'a tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

### Yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 41,9 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo'jayli (jamiga nisbatan ulushi – 94,7 %), Nukus shahri (40,9 %) va To'rtko'l (6,5 %) tumanlarida kuzatildi.

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

|  | Jami<br>(mln. so'm) | O'tgan<br>yilning<br>shu<br>davriga<br>nisbatan,<br>% da | Yirik<br>korxonalar<br>(mln. so'm) | O'tgan<br>Yilning<br>shu<br>davriga<br>nisbatan,<br>% da | Kichik korxonalar<br>(mln. so'm) | O'tgan<br>yilning<br>shu<br>davriga<br>nisbatan,<br>% da |
|--|---------------------|--|------------------------------------|--|----------------------------------|--|
| <b>Qoraqalpog'iston<br/>Respublikasi</b> | <b>1 535 981,9</b>  | <b>114,0</b>   | <b>643 081,8</b>                   | <b>137,3</b>   | <b>892 900,1</b>                 | <b>101,5</b>   |
| <i>tumanlar:</i>                         |                     |  |                                    |  |                                  |  |
| Amudaryo                                 | 19 308,8            | 103,8  | 789,3                              | 117,9  | 18 519,5                         | 103,3  |
| Beruniy                                  | 71 013,1            | 100,4  | -                                  | -  | 71 013,1                         | 100,7  |
| Qonliko'l                                | 21 094,9            | 101,1  | -                                  | -  | 21 094,9                         | 101,1  |
| Qorao'zak                                | 12 913,8            | 102,2  | -                                  | -  | 12 913,8                         | 102,2  |
| Kegayli                                  | 867,3               | 100,4  | 0,6                                | 3,7  | 866,7                            | 102,4  |
| Qo'ng'irot                               | 36 746,4            | 101,7  | -                                  | -  | 36 746,4                         | 101,8  |
| Mo'ynoq                                  | 3 159,3             | 102,3  | -                                  | -  | 3 159,3                          | 102,3  |
| Nukus                                    | 78 422,4            | 102,2  | -                                  | -  | 78 422,4                         | 102,2  |
| Taxiatosh                                | 22 899,0            | 100,3  | 693,6                              | 75,5   | 22 205,4                         | 101,3  |
| Taxtako'pir                              | 10 081,6            | 100,7  | 46,1                               | 126,2  | 10 035,5                         | 100,6  |
| To'rtko'l                                | 77 010,1            | 95,9   | 5 016,0                            | 53,5   | 71 994,1                         | 101,5  |
| Xo'jayli                                 | 344 254,4           | 163,5  | 326 089,0                          | 169,2  | 18 165,4                         | 101,9  |
| Chimboy                                  | 22 478,3            | 95,6   | 410,5                              | 24,7   | 22 067,8                         | 101,0  |
| Shumanoy                                 | 402,4               | 99,9   | 3,8                                | 28,0   | 398,6                            | 102,4  |
| Ellikqal'a                               | 57 321,9            | 101,8  | -                                  | -  | 57 321,9                         | 101,8  |
| Nukus sh.                                | 758 008,2           | 107,6  | 310 032,9                          | 118,0  | 447 975,3                        | 101,4  |

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quiyi o'sish sur'atlari Chimboy (95,6 %), To'rtko'l (95,9 %) va Shumanoy (99,9 %) tumanlarida qayd etildi.